

TASHABBUSLI BYUDJETLASHTIRISHNI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMLARIGA QARATILGAN CHORA-TADBIRLAR HAMDA ERISHILGAN NATIJALAR TAHLILI

Xamidov Xabibullo Xikmatulla o‘g‘li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Mustaqil izlanuvchisi (PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqolada tadqiqotimiz davomida o‘rganilgan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tashkil etilgan “Ochiq byudjet” axborot portali orqali joriy yilda o‘tkazilayotgan “Tashabbusli byudjet” jarayonlari doirasida amalga oshirilayotgan ishlar, fuqarolar tomonidan bildirilgan takliflar, ovoz berish jarayonlari va g‘olib deb topilgan takliflarni moliyalashtirish holatlari yuzasidan huquqiy hamda tahliliy ma’lumotlar, shuningdek, tashabbusli byudjetlashtirish tizimida galdagi yangi amalga oshirilishi kutilayotgan ishlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: tashabbusli byudjet, Ochiq byudjet, axborot portali, davlat byudjeti, jamoatchilik fikri.

Аннотация

В данной статье представлена правовая и аналитическая информация о работе, проведенной в рамках процессов «Инициативный бюджет», проведенных в текущем году через информационный портал «Открытый бюджет», организованный Министерством финансов Республики Узбекистан, предложениях, внесенных гражданами, процессах голосования и случаях финансирования предложений, признанных победителями, а также о работе, проделанной в рамках проекта «Открытый бюджет»

Ключевые слова: инициативный бюджет, Открытый бюджет, информационный портал, государственный бюджет, общественный мнения.

Abstract

This article presents legal and analytical information on the work carried out within the framework of the «Initiative Budget» process conducted this year through the «Open Budget» information portal organized by the Ministry of Finance of the Republic of Uzbekistan, proposals submitted by citizens, voting processes and cases of financing proposals recognized as winners, as well as on the work done within the framework of the «Open Budget» project.

Keywords: initiative budget, Open budget, Citizens’ budget, information portal, state budget, Citizens’ opinion

KIRISH

Xalq bilan muloqot o‘rnatish jarayonida o‘z yechimini kutayotgan muammolar qatorida byudjet shaffofligini ta’minlash masalasi ham mavjud edi. Chunki soliq to‘lovchilar o‘zlari to‘layotgan soliqlar qayerga va qancha miqdorda sarflanishi to‘g‘risida ma’lumot ololmasdilar. Bu boradagi xalqaro indekslarda ham mamlakat qoniqarsiz o‘rinlarni egallab kelardi.

Byudjet ma'lumotlarining ochiqligi va sifati, ularni xorijiy investorlarga va boshqa manfaatdor subyektlarga yetkazish, shuningdek, parlament vakillari hamda fuqarolik jamiyatining davlat byudjetini shakllantirish va ijro etish jarayonidagi ishtiroki yetarli darajada emasdi.

Davlat maqsadli jamg'armalari va chetdan jalb qilingan tashqi qarz mablag'lari hisobidan amalga oshirilayotgan davlat xarajatlarining konsolidatsiyalashgan davlat byudjetida aks ettirilmasligi byudjet qamrovi va ochiqligi darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatardi.

Hududlarda to'planib qolgan, yechimi mablag' bilan bog'liq turli muammolarni hal etish imkoniyati chegaralangan edi. Resurslar cheklangani sababli an'anaviy byudjet orqali bu kabi muammolarni bartaraf etishning imkoni bo'lmagan. Fuqarolar mahalliy byudjet mablag'larini tasarruf etishda o'z taklif va tashabbuslarini ilgari surish huquqidan mahrum edilar.

Byudjet mablag'larini taqsimlashda mahalliy byudjetning qo'shimcha manbalarining kamida 10 foizini jamoatchilik taklifi asosida shakllangan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirishni nazarda tutgan holda fuqarolar ishtirokini ta'minlovchi mexanizm joriy qilindi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Tashabbusli byudjetlashtirishni amalga oshirish mexanizmlari bo'yicha ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu jarayon demokratik boshqaruvni kuchaytirish, fuqarolarning qaror qabul qilishdagi ishtirokini kengaytirish hamda moliyaviy resurslardan samarali foydalanishni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Sherry Arnstein o'zining "A Ladder of Citizen Participation" asarida fuqarolarning qaror qabul qilishdagi ishtiroki darajalarini tahlil qilib, ishtirokchilik jarayonining samaradorligi bevosita hokimiyat organlari tomonidan fuqarolarga berilayotgan real vakolat darajasiga bog'liq ekanini ta'kidlaydi. Arnstein nazariyasiga ko'ra, tashabbusli byudjetlashtirish jarayonlarida fuqarolarning ovozi faqat maslahat darajasida emas, balki haqiqiy qarorlar qabul qilish bosqichiga chiqishi kerak.

Archon Fung o'z tadqiqotlarida ishtirokchilik boshqaruvining turli shakllarini o'rganib, tashabbusli byudjetlashtirish mexanizmlarida "fuqarolik imkoniyatlari va hisobdorlikning uyg'unlashuvi" demokratik institutlar barqarorligini mustahkamlashini ko'rsatadi. Fungning fikricha, ishtirokchilik samarali bo'lishi uchun u faqat shaklan emas, balki mazmunan ham qarorlar sifatiga ta'sir qiluvchi mexanizmga aylanishi zarur.

Gianpaolo Baiocchi Braziliyaning Porto Alegre shahridagi tajribani o'rganib, tashabbusli byudjetlashuv nafaqat resurslarni adolatli taqsimlash, balki fuqarolik faolligini oshirish va ijtimoiy tenglikni mustahkamlash vositasi ekanini ilmiy asoslab berdi. Uning fikricha, Porto Alegre modeli ishtirokchilik demokratiyasining real shakllanishi va ijtimoiy nazorat tizimining samarali ishlashini ta'minlagan.

Brian Wampler esa Braziliyaning boshqa hududlarida olib borgan tadqiqotlarida tashabbusli byudjet mexanizmlarining muvaffaqiyati siyosiy iroda, davlat idoralarning ochiqligi hamda jamoatchilikning uzluksiz ishtirokiga bevosita

bog'liqligini aniqlagan. Wampler shuningdek, bu jarayon fuqarolar orasida "hisobdorlik madaniyati"ni shakllantirishga xizmat qilishini qayd etadi.

Yves Cabannes o'z ishlarida tashabbusli byudjetlashtirishni amaliy jihatdan joriy etishda shaffoflik, inklyuzivlik, ijtimoiy adolat va monitoring tizimlarining uzviyligini muhim shart sifatida belgilaydi. U bu jarayonni "demokratiyaning amaliy laboratoriyasi" deb ataydi va u orqali fuqarolar moliyaviy qarorlar qabul qilishda bevosita ishtirok etish imkoniga ega bo'lishini ta'kidlaydi.

Ruth Abers esa Braziliya misolida fuqarolarning mahalliy boshqaruvdagi roli qanday shakllanishini o'rganib, tashabbusli byudjet mexanizmlarining muvaffaqiyatida "institutsional xotira" va "jamoaviy o'rganish" jarayonlarining ahamiyatini ajratib ko'rsatgan. Abersga ko'ra, fuqarolarning ishtirok etishi ularni faqat siyosiy emas, balki ijtimoiy jihatdan ham faol subyektlarga aylantiradi.

Ushbu olimlar tadqiqotlari birgalikda shuni ko'rsatadiki, tashabbusli byudjetlashtirishning samarali ishlashi uchun qat'iy huquqiy asos, shaffoflikni ta'minlovchi mexanizmlar, fuqarolarning malakasini oshirish dasturlari va mustahkam siyosiy iroda zarurdir. Bunday yondashuv demokratik boshqaruvni chuqurlashtiradi, mahalliy darajada mas'uliyatni oshiradi va jamoatchilik ishonchini mustahkamlaydi.

METODOLOGIYA

Tadqiqot uchun ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, "Ochiq byudjet" portali hamda mahalliy hokimliklarning hisobotlaridan olindi. Tahlil jarayonida statistik ma'lumotlarni solishtirma va dinamik tahlil usullari yordamida qayta ishlash, shuningdek, tashabbusli byudjetlashtirish mexanizmlarining samaradorligini aniqlash uchun empirik va kontent-tahlil yondashuvlari qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

"Ochiq byudjet" axborot portali ishga tushirilib, yangi ko'rinishda keng jamoatchilikka taqdim etildi. Bunda nafaqat davlat byudjeti ijrosi, balki mahalliy byudjetlar ijrosi ham ochiqлана boshlandi.

Byudjet xarajatlarining manzilliligi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish maqsadida Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari, soliq hamda byudjet siyosatining asosiy yo'nalishlari loyihalari, Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari ijrosi to'g'risidagi hisobotlar, shuningdek, Hisob palatasining xulosalari, mahalliy byudjetning qo'shimcha manbalari hisobidan moliyalashtirilishi taklif etilayotgan tadbirlar to'g'risidagi axborotni mazkur portalga joylashtirish tartiblari belgilandi.

Byudjet qonunchiligini buzish holatlari to'g'risida xabardor qilish va byudjet jarayonini takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritish imkoniyatini o'z ichiga olgan fuqarolar bilan qayta aloqa o'rnatish tizimi yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng moliya, bank va soliq tizimidagi islohotlar jadal sur'atlarda olib borilmoqda. Bugungi kunda byudjet-soliq siyosati borasida izchillik bilan amalga oshirilayotgan islohotlar markazida byudjet daromadlari va xarajatlarining samaradorligini oshirish muhim vazifa hisoblanadi. Buning asosiy sababi shundaki, iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni

chuqurlashtirish sharoitida byudjet-soliq tizimini ham takomillashtirish doimiy zaruratga aylanmoqda.

Yurtimizda soʻnggi yillarda aholi turmush darajasini yaxshilash hamda fuqarolarni qiynab kelayotgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etish boʻyicha bir qator ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Joylarda infratuzilmani yaxshilash, tizimli muammoga aylanib ulgurgan yoʻl taʼmirlash, ichimlik suvi taʼminoti, tabiiy gaz hamda taʼlim muassasalari binolarini taʼmirlash singari masalalarni hal etish pirovard maqsadlardan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda 2019-yildan buyon oʻtkazilib kelinayotgan tashabbusli byudjet jarayonlari mazkur sohaning insonlar hayotidagi oʻrni qanchalik dolzarbligini va ushbu jarayon jamiyatimizdagi mavjud ijtimoiy muammolarni hal etishda muhim “dastak” sifatida xizmat qilishini yana bir bor isbotladi.

2024-yilda anʼanaga muvofiq tarzda tashabbusli byudjet jarayonlari ikki mavsum doirasida — yanvar-fevral hamda iyul-avgust oylarida oʻtkazildi. Tashabbusli byudjet jarayonini yanada takomillashtirish hamda ovoz berish bosqichini optimallashtirish, shuningdek majburiy ovoz berish holatlarini kamaytirish maqsadida bir qator yangiliklar va qoʻshimcha imkoniyatlar yaratildi.

Jumladan, birinchi mavsumdan boshlab “Bir fuqaro – bir ovoz” tamoyili joriy etildi. “Mening yoʻlim” loyihasi tashabbusli byudjet jarayoni birinchi mavsumi bilan qoʻshib oʻtkazilishi belgilandi.

Ikkinchi mavsumdan boshlab esa majburiy ovoz berishga jalb etish hamda ovozlarni “sotib olish” holatlarini kamaytirish maqsadida ovoz berish bosqichi 10 kunga qisqartirildi. Xalq deputatlari tuman (shahar) kengashlari vakolatini kengaytirish maqsadida ularga tuman (shahar) byudjeti qoʻshimcha mablagʻlari hisobidan qoʻshimcha gʻoliblarni eʼlon qilish hamda majburiy ovoz toʻplangan loyihalarni bekor qilish vakolati berildi.

Shu bilan birga, tashabbusli byudjet jarayonlari uchun ajratilgan mablagʻlar hajmi 2023-yilga nisbatan 1,2 trln soʻmga yoki 26 foizga oshib, umumiy ajratilgan mablagʻlar miqdori 5,7 trln soʻmni tashkil etdi.

Ikki mavsum davomida “Ochiq byudjet” portaliga fuqarolar tomonidan jami 63 mingdan ortiq loyiha kelib tushdi. Shundan, hududiy ishchi komissiyalar tomonidan mazkur loyihalarning 52 mingdan ortigʻi yoki 83 foizi ovoz berish bosqichiga oʻtkazildi. Rad etilgan loyihalarning aksariyati amalga oshirishning texnik imkoni mavjud boʻlmagan hamda qiymati 1,3 mlrd soʻmdan oshiq loyihalarni tashkil etdi.

Ovozga qoʻyilgan loyihalarning 20 mingtasi (39 foiz) ichki yoʻllarni taʼmirlash, 7,3 mingtasi (14 foiz) koʻcha chiroqlarini oʻrnatish va 6,8 mingtasi (13 foiz) maktablarni taʼmirlash hamda jihozlash loyihalarini tashkil etdi.

Shuningdek, 2024-yildan boshlab tashabbusli byudjet jarayonlarining birinchi mavsumidan eʼtiboran “Bir fuqaro – bir ovoz” tamoyili toʻliq ishga tushirildi. Barcha mahallalar uchun gʻolib boʻlish imkoniyatini yaratish maqsadida, soʻnggi mavsumlarda ketma-ket ikki marotaba gʻolib deb topilgan mahallalar (tashkilotlar) uchun navbatdagi ikkita mavsum doirasida loyiha kiritish imkoniyati cheklab qoʻyildi.

Mablag'lardan samarali foydalanish hamda ijtimoiy muammolarga ko'proq e'tibor qaratish maqsadida tashabbusli byudjet jarayoni doirasida tashkilotlar tomonidan barcha turdagi avtomobillar, jamoat xavfsizligini ta'minlashga oid jihozlar (radar, jamoat joylaridagi kuzatuv kameralari, svetofor), rahbar xodimlar uchun mebel jihozlarini xarid qilish taqiqlanadi.

Joriy yilning birinchi mavsumidan boshlab moliyaviy mustaqil bo'lgan oliy o'quv muassasalarining "Tashabbusli byudjet" jarayonlarida ishtirok etishiga cheklov o'rnatildi (1-jadval).

1-jadval.

Tashabbusli byudjet doirasida 2024-yilda ovoz berish bosqichiga o'tkazilgan loyihalar yuzasidan sohalar kesimida ma'lumot¹

T/r	Hudud nomi	Jami loyihalar	shundan						
			Ichki yo'llar	Umumta'lim maktabi	Ko'cha chiroqlari	Maktabgacha ta'lim	Tibbiyot tashkiloti	Ichimlik suvi va oqava tizimi	Boshqalar
Jami		52 255	20 396	6 823	7 311	2 351	1 780	2 057	11 537
foizda		100%	39%	13%	14%	4%	3%	4%	22%
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	3 004	975	496	329	112	113	76	903
2	Andijon viloyati	3 610	1 762	495	527	74	151	132	469
3	Buxoro viloyati	3 642	1 507	449	476	130	135	45	900
4	Jizzax viloyati	2 510	913	458	245	90	50	67	687
5	Qashqadaryo viloyati	3 870	2 098	321	555	25	79	172	620
6	Navoiy viloyati	3 352	850	468	491	211	142	92	1 098
7	Namangan viloyati	4 089	2 015	393	618	95	119	172	677
8	Samarqand viloyati	3 878	1 663	626	394	180	176	154	685
9	Surxondaryo viloyati	4 567	1 733	732	771	195	176	311	649
10	Sirdaryo viloyati	2 285	717	295	335	120	64	86	668
11	Toshkent viloyati	3 409	1 634	470	438	120	46	108	593
12	Farg'ona viloyati	5 156	1 716	689	842	487	211	322	889
13	Xorazm viloyati	4 388	2 229	411	958	125	81	131	453
14	Toshkent shahri	4 495	584	520	332	387	237	189	2 246

Ovoz berish bosqichida fuqarolar tomonidan 20 milliondan ortiq ovozlar qayd etildi. Jumladan, birinchi mavsumda 11 million hamda ikkinchi mavsumda 9 million

¹ O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi "Ochiq byudjet" axborot portali (<https://openbudget.uz/>)


fuqaro ovoz berishda ishtirok etib, yillik oʻrtacha hisobda aholining 28 foizi ushbu jarayonlarda faollik koʻrsatdi.

Ovoz berish bosqichi yakunlariga koʻra, umumiy qiymati 5,6 trln soʻmni tashkil etgan 4 768 ta loyiha gʻolib deb topildi. Ushbu loyihalar uchun fuqarolar tomonidan 16 milliondan ortiq ovozlar berildi.

Bunda, 2024-yilda ajratilgan mablagʻlar hajmining oshishi hisobiga bir tuman yoki shaharda gʻolib loyihalar soni 2023-yilga nisbatan oʻrtacha 6–8 tadan 13–15 tagacha oshgani qayd etildi.

Shuni ham alohida taʼkidlash joizki, amaldagi tartibga kiritilgan oʻzgartirishlarga muvofiq xalq deputatlari tuman (shahar) kengashlari tomonidan oʻzlariga berilgan vakolatdan foydalangan holda tuman (shahar) byudjetlarining qoʻshimcha mablagʻlari hisobidan 56 ta loyiha uchun qoʻshimcha ravishda mablagʻ ajratilib, gʻolib sifatida eʼlon qilindi.

Gʻolib boʻlgan loyihalarning 1 686 tasi (35 foiz) ichki yoʻllarni taʼmirlash va 1 446 tasi (30 foiz) maktablarni taʼmirlash hamda jihozlash loyihalari hissasiga toʻgʻri keladi (1-rasm).



1-rasm. 2024-yilda gʻolib deb topilgan loyihalar sohalar kesimida¹

Ushbu loyihalar doirasida 3 044 ta yoki mavjud mahallalarning 32 foizida ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalar amalga oshirilishiga erishildi.

Ochiqlik va shaffoflik. “Tashabbusli byudjet” byudjetlashtirishning muhim jihatlaridan biri jarayonning shaffof tashkil etilishi va keng jamoatchilikka ochiq boʻlishidir. “Mening maktabim” loyihasi doirasida ham “Ochiq byudjet” axborot portali orqali jarayon shaffof yuritiladi. Taklif etilayotgan loyihalar, ovoz berish natijalari va moliyalashtiriladigan tashabbuslar ochiq eʼlon qilib boriladi.

¹ Muallif ishlanmasi

Jamoaviy tashabbuslarni ragʻbatlantirish. “Tashabbusli byudjet” byudjetlashtirish jamoaviy fikrlashni rivojlantirish va tashabbuslarni amalga oshirishga qaratilgan boʻlsa, “Mening maktabim” loyihasi ham oʻquvchilarga jamoaviy harakat qilish, fikr almashish va jamoa manfaatlarini hisobga olib qaror qabul qilish imkoniyatini taqdim etadi.

Taʼlim jarayonlaridagi ahamiyati. Jahondagi partisipator byudjetlashtirish tajribalari shuni koʻrsatadiki, mazkur jarayon orqali aholining moliyaviy savodxonligi va jamoat ishlaridagi faolligi oshib boradi. “Mening maktabim” loyihasi ham oʻquvchilarning moliyaviy bilimlarini oshirish, byudjet jarayonlarini tushunish va jamoat manfaatlarini inobatga olgan holda fikr yuritish koʻnikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 23-noyabr PF–199-son “Respublikada yashillik darajasini yanada oshirish, “Yashil makon” umummilliy loyihasini izchil amalga oshirish orqali ekologik barqarorlikni taʼminlash chora-tadbirlari toʻgʻrisida” Farmoni ¹imzolandi.

Unga asosan “Yashil makon” umummilliy loyihasini amalga oshirishda Davlat byudjetidan har yili ajratiladigan mablagʻlarning kamida 50 foizi “yashil bogʻlar” va “yashil jamoat parklari”ni tashkil etish uchun “Ochiq byudjet” axborot portali orqali jamoatchilik fikri asosida shakllangan “Mening bogʻim” loyihalarini moliyalashtirishga yoʻnaltiriladi.

Bunda aholi tashabbusi bilan “yashil bogʻlar” va “yashil jamoat parklari”ni tashkil etish boʻyicha maydon manzili va rasmlari koʻrsatilgan holda qiymati 250 mln soʻmdan oshmagan tashabbus bildiriladi. “Mening bogʻim” loyihalarini shakllantirish va ularga ovoz berish jarayoni 2024-yildan boshlab har yili yanvar-fevral oylarida oʻtkazilishi belgilandi.

“Mening bogʻim” loyihasi doirasida 2024-yil 23-iyundan 7-iyulgacha davom etgan jarayonda mamlakatimiz boʻylab “Ochiq byudjet” portali orqali 53 mingtadan ortiq ovoz berildi. Ovoz berish jarayoni yakunlariga koʻra, 215 ta loyiha gʻolib deb topildi. Gʻolib boʻlgan loyihalarni moliyalashtirish uchun respublika boʻyicha 48,6 mlrd soʻm mablagʻ yoʻnaltirildi.

2025-yil 22-apreldan 30-aprelgacha davom etgan jarayonda mamlakatimiz boʻylab “Ochiq byudjet” portali orqali 59,4 mingtadan ortiq ovoz berildi. Ovoz berish jarayoni yakunlariga koʻra, 174 ta loyiha gʻolib deb topildi. Gʻolib boʻlgan loyihalarni moliyalashtirish uchun respublika boʻyicha 43,5 mlrd soʻm mablagʻ yoʻnaltirildi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu mavzu doirasida amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari va olib borilgan ilmiy-nazariy izlanishlarda byudjet mablagʻlarini fuqarolar ishtirokida sarflash mexanizmini takomillashtirish masalalari kompleks hamda tizimli tarzda oʻrganilgan. Mazkur holat monografiya ishida tadqiq etilgan ilmiy-amaliy muammolar va ularni

¹ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 23-noyabr PF–199-son “Respublikada yashillik darajasini yanada oshirish, “Yashil makon” umummilliy loyihasini izchil amalga oshirish orqali ekologik barqarorlikni taʼminlash chora-tadbirlari toʻgʻrisida” Farmoni <https://lex.uz/uz/docs/-6673808>

bartaraf etish yuzasidan ishlab chiqilgan taklif hamda tavsiyalarning dolzarblik darajasini belgilab beradi.

O‘zbekiston Respublikasida davlat moliyasini boshqarish tizimini isloh qilish davom etmoqda. Uning muhim yo‘nalishlaridan biri byudjet jarayonini takomillashtirish va yanada rivojlantirishdir. Shu jumladan, partisipator byudjetlashtirish amaliyotini joriy etish orqali byudjet masalalarini hal etishga fuqarolarni keng jalb etish bugungi kunning dolzarb vazifasiga aylanmoqda.

Xalqaro tashkilotlar partisipator byudjetlashtirish vositalarini tanlashda ko‘pincha fuqarolar ishtirokini hokimiyatni nomarkazlashtirish va vakolatlarni hukumatning quyi darajalariga o‘tkazish shakli sifatida baholaydilar. Ochiqlik va oshkoralik bilan bir qatorda, fuqarolar ishtirokida byudjetlashtirish hisobdorlikni rivojlantirish vositalaridan biri sifatida qaraladi. Davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish vositalari qatoriga partisipator byudjetlashtirishning kiritilishi esa zamonaviy boshqaruvdagi muhim tendensiyaga aylanib bormoqda.

FOYDALNILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси иқтисодиёт ва молия вазирлиги “Очиқ бюджет” ахборот портали (<https://openbudget.uz/>)
2. Халқаро Молиявий институт “Жаҳон банки”нинг расмий веб сайти маълумотлари.
3. Молия вазирлиги расмий веб-сайти маълумотлари
4. “Очиқ бюджет” ахборот порталининг маълумотлар базаси
5. Иқтисодиёт ва молия вазирлиги Ўқув маркази Молиячи маълумотномаси блотени Д.Пулатов ва Х.Хамидов мақоласи (Т.: -2022, №3, Б.2-5.)
6. Иқтисодиёт ва молия вазирлиги Ўқув маркази Молиячи маълумотномаси блотени А.Хасанов мақоласи (Т.: -2022, №4, Б.2-7.)
7. О‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 23-noyabr PF–199-son “Respublikada yashillik darajasini yanada oshirish, “Yashil makon” umummilliy loyihasini izchil amalga oshirish orqali ekologik barqarorlikni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmoni <https://lex.uz/uz/docs/-6673808>



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhah:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, sentyabr, 9-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**